

---

## „HAJ-2023“;



48 nafar yurtdoshlarimiz muborak safarga kuzatildi

Tuman hokimligida muborak Haj safariga nasibalari qoʻshilgan 48 nafar yurtdoshlarimizni kuzatish marosimi boʻldi. Safar oldidan xoji ota, xoji onalarga bir piyola choy tashkil qilindi.

Tuman hokimi Dilshodjon Djalilov bu muborak safarlar yurtimiz tinchligi mevasi ekanligiga e'tibor qaratib, respublika, tumanimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, ijobiy o'zgarishlar haqida gapirdi.

--Mana muborak Haj safariga ajratilayotgan kvotalar soni yildan-yilga ortyapti,-dedi hokim.-Kelasi yillari, xudo xohlasa yanada ko'payadi. Ota-bobolarimiz Hajni orzu qilib o'tib ketishdi. Shunday imkoniyat sizlarga nasib qilyapti. Muqaddas joylarda yurtimiz yanada gullab-yashnab, rivojlanishiga duo qilinglar.

Muqaddas Haj ziyorati odob-axloqlar haqida ulamo Asilxon to'ra Isayev yo'l-yo'riq, maslahatlar berib, duo qildi.

Ziyoratchilarimiz zamonaviy avtobuslarga o'tirib, IIB va yo'l harakati xavfsizligi xodimlari kuzatuvida Namangan xalqaro aeroportiga yo'l oldilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-10 16:44:00